

**7-SINF O'QUV ATLASINI O'RGATISHDA INTERFAOL
METODLARDAN FOYDALANISH
(O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografik atlasining maktab
o'quvchilariga o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish)**

Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li

Andijon davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti geografiya yo'nalishi

+998901403566

Annotatsiya: Ushbu maqolada 7-sinf o'quv (O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografik atlasini) atlasini maktab o'quvchilariga o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish haqida taklif va tavsiyalar yozilgan.

Kalit so'zlar: 7-sinf atlasini, domino usuli, ranglar jilosi usuli, tahlil va tavsif berish usuli.

KIRISH

Bugungi rivojlangan asrimizni geografik xaritalarsiz tasavvur qilish qiyin. O'ylaylik, biz biron-bir joyga (viloyat, tuman, shahar) borish uchun ham albatta xaritalardan foydalanamiz. Bugungi kunga kelib, elektron xaritalar google maps, google earths kabilar paydo bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Geografik xaritada Yer yuzasi tekis yuzada juda kichraytirilgan holda shartli belgilar bilan tasvirlanadi. Xaritalarda butun Yer yuzini ham, uning ayrim qismlarini ham tasvirlash mumkin. Yerning qabariq yuzasi tekis yuzada (qog'ozda) tasvirlanganda ayrim xatoliklar bo'ladi. Bunda asosiy xatoliklar ikki xil bo'ladi: maydon xatoligi va yo'nalish xatoligi. Masalan, Dunyo xaritasida shimoliy va janubiy qutblarga yaqin orollar, dengizlar aslidan kattaroq tasvirlanadi.

Xaritalarda Yer yuzasidagi hamma narsani ko'rsatib bo'lmaydi. Shuning uchun xaritalar nimalarni aks ettirishiga qarab har xil bo'ladi. Geografik xaritalarni shartli ravishda 3 turga bo'lish mumkin: tabiiy geografik, siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar. Tabiiy geografik xaritalar: relyef xaritasi, foydali qazilmalar xaritasi, tuproqlar xaritasi, o'simliklar xaritasi, hayvonot dunyosi xaritasi va boshqalar. Masalan, relyef xaritalarida quruqlik yuzasidagi va dengiz ostidagi notekisliklar — tog'lar, qirlar, tekisliklar tasvirlanadi. O'simliklar xaritalarida turli hududlardagi o'simliklar, ularning qanday tarqalgani ko'rsatiladi.

Foydali qazilmalar xaritalarida ko'mir, neft, gaz, temir rudasi va Yerning boshqa mineral boyliklari qayerlarda joylashgani shartli belgilar bilan aks ettiriladi.

Iqlim xaritalarida Yer yuzining qayerida qancha yog'in yog'ishi, havo harorati

qanday bo‘lishi, shamollar yo‘nalishi ko‘rsatiladi.

Tabiat zonalari xaritalarida Yer yuzida tabiat zonalarining qanday joylashganligi, bu zonalarda qanday turdagi o‘simliklar o‘sishi, qanday tuproqlar tarqalgani ko‘rsatiladi.

Siyosiy-ma‘muriy xaritalarda dunyodagi davlatlar, ularning ma‘muriy qismlari (viloyatlari, tumanlari, shaharlari), asosiy transport yo‘llari va boshqalar tasvirlanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy xaritalarda sanoat korxonalarini va qishloq xo‘jaligi ekinlari, transport yo‘llari shartli belgilar bilan tasvirlanadi. Yuqoridagi barcha xaritalarda ma‘lum mavzuga oid geografik narsa (predmet) va hodisalar tasvirlangan bo‘ladi. Shuning uchun bunday xaritalar mavzuli xaritalar deb ataladi.

Geografik xaritalar Dunyo xaritasi, materik va okeanlar xaritasi hamda alohida o‘lkalar, davlatlar xaritalariga bo‘linadi. Mavzuli xaritalardan tashqari umumgeografik xaritalar ham mavjud. Ularda hududning umumiy ko‘rinishi, ya‘ni relyef, daryolar, ko‘llar, dengizlar, shaharlar, okeanlardagi yirik oqimlar va boshqalar ko‘rsatiladi. Bunday xaritalar tabiiy xaritalar deb ataladi. Tabiiy xaritalar ham har xil bo‘ladi: Dunyo (Yarimsharlar)ning tabiiy xaritasi, alohida materiklarning tabiiy xaritalari, ayrim davlat va o‘lkalarning tabiiy xaritalari.

Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib raqamli xaritalar yaratilmoqda. Ularning afzalligi shundaki, tasvirlanayotgan ma‘lumotlar doimo yangilab turiladi.

Yozuvsiz xaritalar ham mavjud bo‘lib, ularda konturlar beriladi xolos. Bu xaritalardan amaliy ishlarni bajarishda foydalaniladi.

Xaritalarda turli predmet va hodisalarni tasvirlash uchun xaritaning o‘ziga xos tili hisoblangan shartli belgilardan foydalaniladi.

Yer yuzasining relyefi xaritalarda har xil ranglar bilan tasvirlanadi. Bunda 0 metrdan (dengiz sathidan) 200 metrgacha bo‘lgan pasttekisliklar yashil rangga, 200 dan 500 metrgacha baland bo‘lgan qirlar sariq rangga, undan baland yerlar jigarrangga bo‘yaladi. Har bir rang qanday balandlikni bildirishi xaritaning shartli belgisida beriladi. Bunday belgilar balandliklar shkalasi deb ataladi. Balandliklar shkalasidan foydalanib hududning har bir nuqtasining balandligini aniqlasa bo‘ladi. Chuqurliklar shkalasi ham shunday tuzilgan. Ba‘zi bir tog‘ cho‘qqilarining balandligi, ayrim okean botiqlarining chuqurligi xarita va globuslarda metr (raqam) bilan ko‘rsatib qo‘yiladi (xaritadan toping). Foydali qazilmalar (neft, gaz, ko‘mir, temir, oltin, mis, olmos va boshqalar) xaritada maxsus belgilar bilan ko‘rsatiladi. Xaritalarda turli obyekt va hodisalarning harakati, siljishi harakat yo‘nalishi belgisi — strelka bilan tasvirlanadi. Masalan, dengiz oqimlari, shamol yo‘nalishi strelkalar yordamida ko‘rsatiladi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

7-sinf o‘quv atlasini O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi bo‘yicha o‘quv qo‘llanma bo‘lib, o‘z o‘lkasining tabiiy geografiyasini o‘rganish uchun mo‘ljallangan.

Atlas ikki asosiy qismdan iborat. Birinchi qismda O'rta Osiyo tabiatining alohida komponentlari aks ettirilgan.

Atlasning ikkinchi qismida O'zbekiston tabiatining alohida komponentlari va uning tabiiy geografik okruglari, shuningdek, O'zbekiston haqida ma'lumotnomali ma'lumotlar ko'rsatilgan.

Atlasdan O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy chegaralari, relyefi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, iqlimi, tuprog'I, o'simliklari va hayvonlari haqida to'liq ma'lumot olish mumkin.

1.O'rta Osiyo siyosiy xaritasini ranglar jilosi orqali ham o'rganish qulaydir. Ma'lumki, o'lka davlatlarini bir-biridan turli ranglar orqali ajratilgan bo'lib, masshtabi 1:7700000 da ya'ni 1 sm da 77 km berilgan.




Mazkur xaritada poytaxt-shaharlar Times new roman 12 shriftda katta harflarda berilgan. Siyosiy xaritada berilgan davlatlarning bayrog'larini yaxshi o'rganib olish uchun domino usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

| | |
|--------------|---------------|
| Start | Afg'oniston |
| | Eron |
| | Qozog'iston |
| | Xitoy |
| | Qirg'iziston |
| | Tojikiston |
| | Turkmaniston |
| | O'zbekiston |
| | Finish |

2.Ranglar jilosi usuli siyosiy xaritada bir davlatdan ikkinchi bir davlatni ajratuvchi rang bo'lsa, tabiiy xaritada muhim hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Xususan, bizga ma'lumki, O'rta Osiyoning shimol, shimoli-g'arb, g'arb, janubi-g'arb tomonlari

pasttekislilarni, sharq, janubi-sharq, janub tomonlarini baland tog'liklar o'rab olganligini guvohi bo'lamiz.



Tabiiy xaritalarda ranglarni relyef bo'yicha 2 guruhga bo'lib o'rganish mumkin. Ular havorang bilan ko'llarning chuqurlik shkalasi tasvirlanadi. Havorang qancha to'q bo'lsa, ko'llar shunchalik chuqur bo'ladi. Xaritada boshqa ranglar esa o'lkaning geomorfologik tuzilishini aks ettirgan. Xususan, yashil rang bilan botiqlar va pasttekisliklar, sariq rang bilan esa qirlar, to'q sariq rang bilan qoldiq tog'lar, qizg'ish-qizil rang bilan esa tog'lar va to'q jigarrang bilan baland tog'lar tasvirlanganligini guvohi bo'lamiz.

O'rta Osiyo tabiiy xaritasini talabalarga yaxshi o'zlashtirishini ta'minlash uchun "Venn diagrammasi" dan foydalanish juda ham qo'l keladi.


O'rta Osiyoning geografik o'rning qulayligi va noqulayligi




O'rta Osiyoning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi masshtabi 1:13400000 bo'lib, bu 1 sm da 134 km deganidir. Ushbu xaritada o'lkaning geografik o'rni, yerusti tuzilishi, iqlimi, ichki suvlari, o'simlik va hayvonot dunyosi bir-biridan farq qiladigan






2 ta tabiiy geografik kichik o'lkaga Qozog'iston tabiiy geografik kichik o'lkasi va Turon tabiiy geografik kichik o'lkasiga bo'lingan. Ular ham yana tarmoqlangan.

O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasini klasterda bo'linish sxemasi.



O'zbekistonning tabiiy-geografik rayonlashtirish kartasida ham o'quvchilarni bilimini yodda saqlash, o'rganish uchun moslang metodidan foydalanilsa ham bo'ladi.

| Tabiiy geografik rayon xaritasi | Qaysi rayonlar bilan chegaradosh |
|---|---|
|  | Sharqda Chirchiq-ohangaron, Janubi-g'arbda Zarafshon, Shimolda Qizilqum tabiiy-geografik okrugi va Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh |

| | |
|---|---|
|  | <p>Deyarli barcha tomonlari bilan Qirg'iziston respublikasi bilan faqat g'arb tomonida Chirchiq-changaron tabiiy-geografik okrugi bilan chegaradosh</p> |
|  | <p>Shimolda Zarafshon , janubda Qashqadaryo tabiiy-geografik okruglari bilan chegaradosh</p> |
|  | <p>Shimolida Qozog'iston respublikasi, g'arbda Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugi, sharq va janubi-sharqda Mirzacho'l va Zarafshon tabiiy-geografik okruglari bilan chegaradosh.</p> |
|  | <p>Shimol va g'arb tomonlari Qozog'iston respublikasi, Sharq tomondan Quyi Amudaryo okrugi, janubda Turkmaniston respublikasi bilan chegaradosh</p> |
|  | <p>Sharqda Ustyurt okrugi, g'arbda Qizilqum, shimolda Qozog'iston respublikasi va janubda Turkmaniston respublikasi bilan chegaradosh</p> |

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 7-sinf o'quv (O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografik atlasini) atlasini maktab o'quvchilariga o'rgatishda domino, ranglar jilosi, venn diagrammasi va klaster, juftliklarni moslang kabi metodlardan foydalanish darsni qiziqarli tashkil qilibgina qolmay, ularda intiluvchanlik, vatanparvarlik, yurtni sevish kabi ijobiy fazilatlarni va intellektual bilimni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.T.Mirakmalov, SH.M.Sharipov, M.M.Avezov, M.T.Hojjiyeva - 7-sinf Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursi. Toshkent-2022
2. 7-sinf o'quv atlasini.
3. Internet manbalari.